

AUTISM SPEKTRLI BOLALARNING SO'Z BOYLIGINI SHAKILLANTIRISHDA SAMARALI METODLARDAN FOYDALANISH

Maxkamova Zebo Ubaydullayevna

*Nizomiy nomidagi TDPU, Maxsus pedagogika, defektologiya,
(oligofrenopedagogika) mutaxassisligi, 1- kurs magistranti*

Annotatsiya: *Bu maqolada hozirgi kunda autizmli bolalarni so'z boyligini shakllantirish va tovush talaffuzini chiqarish ustida olib borilayotgan maxsus metodika haqida so'z boradi. Mazkur metodlarning tavsifi, samaradorligi, olib boorish jarayoni ham tahlilga tortilgan.*

Tayanch iboralar: *Autism spektrli, so'z boyligi, PEKS, “Logopedik o'yin”, ontogenez, “MAP – metod”, verbal, noverbal, logoritmik mashg'ulotlar*

Bugungi kunda ijtimoiy muammo autizm spektrli bolalarni so'z boyligini shakllantirish kam o'rganilgan. Bir tomondan, buning sababi psixologik qiyinchiliklar va boshqa tomondan maktabgacha yoshdagi autizm spektrli bolaning hissiy holatini baholash, ob'ektiv psixologik rivojlanishi va pedagogik tuzatishlar va so'z boyligini shakllantirish bolalarning ijtimoiy hayotga moslashish qobiliyati etarli emasligi bilan bog'liq.

Autizm spektrli bolalar so'z boyligini shakllantirishga qaratilgan bizga ma'lum bo'lgan metodlar juda kam o'rganilgan. Klassik logopediya bu borada biroz o'zlashtirilgan. Chunki ko'pgina autizm spektrli bolalar uchun atrof muhit qiziqarsiz, hamda ulardagi kuchli qurquv klassik tizimda ishlatiladigan metodlardan foydalanishga to'skinlik qiladi. Masalan, mexanik usulda zond orqali tovushlarni nutqqa quyish bolada zondga nisbatan qurquv xosil qiladi. Autizmli bolalarni muloqot ko'nikmalarini shakllantirish uchun bir qancha muqobil muloqot usullari ham bor, lekin har qanday muqobil muloqot usuli faqatgina bir yoki ikki analizator funksiyasiga tayanadi va bir qancha afzalliklar va kamchiliklarga ega. Masalan, PEKS ko'ruv idrokiga tayanadi, agar bolada ko'ruv idroki yaxshi rivojlanmagan bo'lsa bu bola uchun qiyinchilik tug'diradi, imo- ishora tili bu usuldan foyalanish uchun boladan mayda qo'l motorikasini yaxshi rivojlanganligi talab etiladi, bizga ma'lumki autizmli hamda boshqa nutq nuqsoniga ega bolalarning ko'pchiligi motor xarakatlarni bajarishda qiyinchiliklarga uchraydilar. Hozir biz ko'rib chiqmoqchi bo'lgan metodlarimiz esa turli usullar bilan bola uchun eng afzalini tanlash imkonini beradi.



Hozirgi kunda eng samarali natijalar ko'rsatayotgan metodlarni bir qanchasi bilan tanishamiz.

T.Gruzinovaning nutq chiqarish bo'yicha metodikasi

Bu metodika ramzlar asosida fikrlashni rivojlantirishga asoslangan, ya'ni vositalar va vizual mustahkamlashlar orqali artikulyatsion praksisni rivojlantirishga qaratilgan.

T.Gruzinova nutq chiqishida idrok va harakatni ishga solish kerak deb hisoblaydi. Bu metodika sensomotor yondashuvga asoslangan bo'lib, bu harakatlarni rejalashtirish, gnozis buzilishi bo'lgan va aqli zaif bolalar uchun tog'ri keladi.

Bu metodika “Igrovaya logopediya” deb ataladi, ya'ni bolani nutqini o'yinlar orqali chiqarishga qaratilgan.

Uning mohiyati shundaki, bolaning nutqida yo'q bo'lgan tovush uchun vosita belgisi orqali harakatlar tanlanadi. Logoped tovush artikulyatsiyasi uchun kerakli holatni (havo oqimini, artikulyasion holatni) hosil qiladi, jest va imo – ishora orqali mustahkamlaydi. Tovush qo'yishni undoshlar bilan boshlaydi, u undosh tovushlar ma'no hosil qiluvchi tovushlar deb hisoblaydi. Keyinchalik esa asta sekinlik bilan ko'rsatmalar (tayanch) olib tashlanadi va tovushga taqlid qildiriladi. Korreksion ishning keyingi bosqichi so'zlarni, keyin esa iboralarni talaffuz qilishni o'z ichiga oladi.

Tamara Nikiforova Novikova – Ivantsova metodikasi ham nutq chiqarishga mos keladi.

Uning metodikasi nutq rivojlanishining ontogeneziga asoslanadi. Muallif bu metodika orqali og'ir nutq nuqsonlari va murakkab nutq nuqsonli bolalar nutqini rivojlantirishni ko'zda tutgan.

Bu metodika bilan ishlash teri taktil, ko'rish va eshitish hissiyotlariga tayanib, nutqning ohang va ritmik tomonini rivojlantirishga qaratilgan.

Masalan, “A” tovushi bola baland ovozda, past ovozda, qisqa va cho'zib talaffuz qilishni o'rganadi. Metodika muallifi bu bosqichni uzoq davom etishi mumkin deb aytadi. Nikiforovaning metodikasi noverbal komponentlar ustida ishlashni o'z ichiga oladi: motorika, ko'ruv idroki va boshqalar.

Metodika musiqaga asoslangan bo'lib, avval tovushlarni, keyin ovozga taqlidni, so'zlarni va boshqalrni kuylashdan iborat.

“MAP – metod” M.I.Linskoy

Bu metodika 3 ta tushunchaga asoslanadi: moslashish, motivatsiya va o'yin. Metodika hissiy integratsiya nazariyasiga asoslangan turli xil texnikalardan iborat.



Bu metodika ham murakkab nuqsonli, og'ir nutq nuqsonli bolalarga mo'ljallangan. Metodika hissiy tizimlarning ulanishi va moslashuvchan javobni shakllantirish orqali verbal va noverbal ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha yakka va guruhli mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi.

Metodikaning o'ziga hos hususiyati – bu his qilishni rivojlantirishga asoslangan bitta mavzu bilan bog'liq bo'lgan judda katta miqdordagi hissiy materiallardan iborat bo'lishidir. Ushbu mavzu doirasida asosiy hidlar va so'zlar ta'kidlanadi, shunga asoslanib dars quriladi.

Fomicheva M.F. metodikasi

Bu metodika tovushlar talaffuzini korreksiya qilishga va avtomatisatsiyaga asoslangan. Biz bu metodikaga to'xtalishimizning asosiy sababi Mariya Feodorovna tovushlarning ramzlarini logopediyaga kiritdi. Ovoz bu – o'z – o'zidan ramz, lekin juda mavhum, bolada akustik tasvirdan tashqari, unga tayanadigan hech narsa yo'q, bu ko'p bolalarga yetarli emas. Rasm assotsiativ fikrlashdan foydalangan holda bu tovushni yanada tushunarli va aniq talaffuz qilishga yordam beradi.

Muhim va samarali usullardan yana biri bu – logoritmika

To'g'ri yondashuv bilan logoritmika orqali nutqning barcha tarkibiy qismlarini: motor, prosodik, ritmik faoliyat orqali nutq chiqarish, nutqni tushunish, eshitish gnozisi, faol nutq, kommunikatsiyani rivojlantirish va barcha kognitiv komponentlar.

Logoritmika ritmga asoslangan bo'lib, u harakat, musiqa va vizual ritmlar orqali amalga oshiriladi.

O.Tarasova va Yu.Chernishevaning logoritmik mashg'ulotlari rivojlanishning barcha sohalarini shakllantirishga qaratilgan va murakkab nutq nuqsonli bolalar uchun ham to'g'ri keladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz kerakki zamonaviy nutq chiqarish usullari har bir bolaning individual hususiyatlardan kelib chiqib yondashish orqali eng samarali natijalarga erishishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. С Танцюра, С Кононова «Альтернативная коммуникация в обучении детей с ОВЗ» 2022
2. С Танцюра, Л Савина «Общаться – это просто. Занятия по взаимодействию с ребенком с ОВЗ. Часть 2. 2022
3. Л Фрост, Э Бонди «Система альтернативной коммуникации с помощью карточек (PECS)»



4. N. Q. Abidova Autizm spektrli bolalarni o`qitish va tarbiyalash/o`quv qo`llanma. Toshkent – 2023 y.

5. Qutbiddinov A. N. THE TECHNOLOGY OF FORMING GEOMETRIC CONCEPTS IN PRIMARY CLASS STUDENTS WITH INTELLECTUAL DEFECTS BASED ON THE INNOVATION IDEA //INTEGRATION CLUSTER" ON THE BASIS OF INTERDISCIPLINARY RELATIONSHIPS." International Scientific and Current Research Conferences. – 2022.

6. Qutbiddinov A. N. THE TECHNOLOGY OF FORMING GEOMETRIC CONCEPTS IN PRIMARY CLASS STUDENTS WITH INTELLECTUAL DEFECTS BASED ON THE INNOVATION IDEA" INTEGRATION CLUSTER" ON THE BASIS OF INTERDISCIPLINARY RELATIONSHIPS //International Scientific and Current Research Conferences. – 2022. – C. 241-247.

7. Abidova, N. K. (2023). Psychological and pedagogical study of children with autism. Oriental Journal of Education, 3(03), 61-65.

8. Qutbiddinov, A. N. (2022). Technology of forming geometric concepts in primary class students with intellect defects on the basis of" integration Cluster". Journal of Pharmaceutical Negative Results, 6461-6466.

9. Nazokat, A. (2023). Autizm spektori buzilgan o`quvchilarning bilish faoliyatining o`ziga xos xususiyatlari. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 412-415.

10. Abidova, Nazokat. "Positive effects of formation of knowledge, skills and skills on the basis of interdisciplinary relations." *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.3 (2021): 2505-2510.

11. Qutbiddinovna A. N. AUTIZM SPEKTORLI BOLALARDA IJTIMOYIY-MAISHIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH: doi.org/10.5281/zenodo.10555394 //ILM-FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI. – 2024. – T. 1.No. 1.

12. Obidova, B., & Abidova, N. Q. (2023). RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALAR LUGAT BOYLIGINI RIVOJLANTIRISH. QO`QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 417-419.

13. Abdupattayeva, D., and N. Q. Abidova. "IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI INKLUZIV TA'LIMGA KIRITISH UCHUN ULARNING OTA-ONALARINI TAYYORLASH YO`LLARI." QO`QON UNIVERSITETI XABARNOMASI (2023): 758-760.

14. No`monjonova, R., & Abidova, N. Q. (2023). IMKONIYATI CHEKLANGAN YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH. QO`QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 448-450.



15. Sharobidinova F., Abidova N. Q. AUTIZMGA EGA BOLALARNI PSIXOLOGO-PEDAGOGIK O'RGANISH //QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – C. 761-763.

16. Ubaydullayeva M., Abidova N. Q. O'ZBEKISTONDA AQLI ZAIF BOLALARNI ERTA TASHXIS QILISH MUAMMOLARI //QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – C. 764-766.

17. Khamidova, M. P. (2021). DEVELOPMENT OF COLLECTIVE ACTIVITY OF SPECIALIZED ASSISTANT SCHOOL STUDENTS ON THE BASIS OF DIDACTIC GAMES IN MATHEMATICS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(11), 134-137.

18. Musaeva N. S., Khamidova M. P. Speech development in elementary school students and ways to develop vocabulary //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – T. 24. – №. 6. – C. 289-296.

19. Muyassar P. Khamidova, ., & Ezoza N. Ziyodullayeva, . (2022). THE SIGNIFICANCE OF ACTUAL PLAY IN DEVELOPING THE VOCABULARY OF PRESCHOOL CHILDREN WITH MENTAL IMPAIRMENT. International Journal of Pedagogics, 2(12), 126–129. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume02Issue12-23>

20. Khamidova M. FEATURES OF ACQUISITION OF MATHEMATICAL KNOWLEDGE BY MENTALLY RETARDED CHILDREN //Conference Zone. – 2022. – C. 149-154.

21. Khamidova M. P., Rajapova S. O. TECHNOLOGY OF FORMATION OF ELEMENTARY MATHEMATICAL IMAGINATION OF PRESCHOOL CHILDREN WITH DELAYED MENTAL DEVELOPMENT //International Journal of Pedagogics. – 2022. – T. 2. – №. 12. – C. 28-31.

